

Salom, maktab



Ibrohim Jiyanov she'ri
Pavel Uporov musiqasi

- 1 Bu kun xuddi bayramdir bizga,
Nur sochar Quyosh ham o'zgacha.
Biz bugun xursandmiz barchamiz,
Tez yurib maktabga shoshamiz.
Bag'ringda yana bilim olamiz,
Yaxshi o'qishga biz tayyormiz!



NAQAROT:

Bir, ikki, uch, to'rt, besh!
Salom, maktab, salom, kitobim!
Bir, ikki, uch, to'rt, besh!
Salom, do'stlar, aziz ustozim!

- 2 Eng dono bizning ustozimiz,
Keng va yorug' sinfxonamiz.
Biz o'rganib yangi fanlarni,
Lol etamiz butun olamni.
Hamma sohada ilg'or bo'lamiz,
A'lo bahoga biz o'qiymiz.



NAQAROT

- 3 Men, sen – hammamiz –
O‘zbekistonliklarmiz!
Har doim ahil, inoq –
Bizlar bir oilamiz.
Do‘st bo‘lib, birga o‘qib,
Zo‘r insonlar bo‘lamiz,
Bilim, kuch, qanot berar maktabimiz!

NAQAROT



1. Nima uchun birinchi sinf o‘quvchilari maktab oldidan hayajonlanadilar?
2. Nima uchun onalar farzandlarining qo‘llaridan ushlab oladilar?
3. Ilk maktabga borgan kuningiz o‘zingizni qanday his qildingiz?
4. Ertalab maktabga qanday tayyorlanishingizni aytib bering.

